



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 23 - yanvar

48-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Sho‘rchi tumanida bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarini
davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5, 36-moddalari va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6-moddasiga asosan, Sho‘rchi tumani hokimining 2023-yil 20-dekabrda 01-05/842-son xati hamda Sho‘rchi tumanida faoliyat yuritayotgan “Oqqo‘rg‘on sazan balig‘i” fermer xo‘jaligining 2023-yil 28-fevral kuni notarial idora tomonidan tasdiqlangan reyestr 202302010000586-son bilan qayd etilgan rozilik arizasini inobatga olib,

QAROR QILAMAN:

1. Sho‘rchi tumanidagi “Oqqo‘rg‘on sazan balig‘i” fermer xo‘jaligiga tegishli “Oqqo‘rg‘on” mahallasi hududidan baliqchilikni rivojlantirish uchun ajratilgan qishloq xo‘jaligi xaritasining 215-konturidagi 2,0 gektar yer maydoni tuman hokimligi zaxirasiga olinsin hamda bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalari hisoblanishini inobatga olib, davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

2. Davlat kadastrlari palatasi viloyat boshqarmasi (S.Shaymardanov) zaxiraga qaytarilgan yer maydonlarining tuman hokimligi hisobiga qayta ro‘yxatdan o‘tkazilishini ta‘minlab, yer hisobotiga tegishli o‘zgartirishlar kiritilsin.

3. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) tuman hokimligi zaxirasiga qaytarilgan jami 2,0 gektar yer maydonini belgilangan tartibda loyiha hujjatlarini tayyorlab, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-fevraldagi 71-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablari asosida qayta “E-ijro auksion” elektron onlayn-auksion savdosiga qo‘yilishini ta‘minlasin.

4. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz) da e‘lon qilinsin.

5. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi
o'rinbosari**



A.X.Amirov